# SURISHTIRUV JURNALISTIKASI UCHUN ARZIMAS AXBOROT HAM ARZIRLI ASOSLARGA EGADIR

**Karimova Mashhura Xoshim qizi**

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti,

stajyor-o‘qituvchi

**Annotatsiya**

“Oq uyning qulashi” filmini ko‘pchilik tomosha qilgan. Aynan "UOTERGEYT ISHI" bilan bo‘gliq bo‘lgan va 1972-1974-yillarda AQSHda prezident Richard Niksonning iste’foga chiqishi bilan yakunlangan siyosiy janjal tarixiga borib qadaluvchi surishtiruv jurnalistikasi bugungi globallashuv davrida ayni muddao.Voqelikka ko‘ra 1974-yil 17-iyunda demokratlar partiyasining nomzodi Jorj Mak Governning Vashingtondagi “Uotergeyt” mehmonxonasida joylashgan shtab-kvartirasida 5 kishi hibsga olinadi. Ular saylovoldi shtabiga respublikachilar vakillari tomonidan xufiya eshitish moslamalarining o‘rnatilishi va ba’zi ma’lumotlarga qaraganda demokratlar shtabidagi ichki hujjatlarni suratga olishi “Uotergeyt ishi” nomli siyosiy janjalga aylanib, R.Niksonning bu ishga aloqadorlikda ayblanishidan va o‘zini javobgarlikka tortilishidan qo‘rqib muddatidan oldin iste’foga chiqishiga olib keladigan konfliktni amerikalik sotsiologlardan biri “Amerikaning tinchlik davridagi eng jiddiy siyosiy inqiroz” deb ataydi o‘shanda.

Voqealar markazida yigirmanchi asrning eng mashhur siyosiy janjallaridan biri bo'lgan "Uotergeyt" hikoyasi yotadi. Bu haqiqatan ham butun dunyo hamjamiyatini hayajonga solgan va ulkan o'zgarishlarga olib kelgan (birinchi navbatda, Oq uy uchun), natijada Richard Nikson muddatidan oldin iste'foga chiqishga majbur bo'ldi. Biroq, ko'p yillar davomida kim asosiy bo'g'in bo'lganini kam odam bilar edi. Ammo bu uzoqqa cho‘zilmaydi. Va butun dunyo haqiqatni bilib oldi. O‘sha paytda Federal tergov byurosi boshlig‘ining o‘rinbosari bo‘lgan Mark Feltning halolligi, haqiqatparvarligi va adolatsizlikka murosasiz munosabati bugun jurnalistlar uchun mardonavor xolislikka yo‘l boshlovchi, adolatni tiklash mumkinligiga ishontiruvchi jurnalistik uslubning ilk kurtaklari unishiga yo’l ochgani bor gap. Nohalol siyosiy raqobat yuz berishini bilib qolgach Felt na jim turoldi va na chetda tura oldi. Qo‘llaridagi davlat rahbarini ayblaydigan janjalli materiallardan jamoatchilikni ogoh qilish lozimligiga o‘zini vijdonan haqli deb biladi va bu shov-shuvli janjalning deyarli barcha sahna ortidagi tafsilotlarini, vatan manfaati uchun hamma narsani qurbon qilgan shaxsning kimligini bildirish imkoniyatini qo‘ldan boy bermaydi..

**Kalit so’zlar :**

Jurnalistika , Uotergeyt , R.Nikson, janr.

Uillmenning keltirishicha, “Jurnalist surishtiruvi – bu odatdagi reportyorlik emas ekan. Unda jurnalist surishtiruvi nima? U qanday olib boriladi? Nega u bilan shug‘ullanish zarur? Ushbu janr tarixida burilish yasagan Uotergeyt ishidan keyin o‘tgan deyarli yarim asrlik davrdan so‘ng na jamoatchilik, na jurnalistlarning o‘zi mazkur savollar bo‘yicha yagona fikrga kela olmayapti. Bu boradagi jahon tajribasini bir joyga to‘plagan holda, quyidagilarni aytish mumkin: Jurnalist surishtiruvi hayotdagi yashirin hodisalarni, ya’ni hokimiyatga ega shaxslar tomonidan yoki taqdir taqozosi bilan ataylab yashirilgan voqealarni fosh etishni ko‘zda tutadi. Uni o‘tkazish uchun ham ochiq, an’anaviy, ham noan’anaviy, shu jumladan yashirin manbalar va hujjatlardan foydalanish zarur bo‘ladi. Yangiliklarni an’anaviy ma’noda yoritish

muayyan darajada, ba'zida esa to'laligicha boshqa shaxslar (masalan, davlat hokimiyati va huquq-tartibot organlari, tashkilotlar, kompaniyalar, korxonalar va h.k.larning vakillari) tomonidan taqdim etiladigan materiallarga bog'liq. O'z mohiyatiga ko'ra, ushbu jarayon reaktiv, aniqrog'i, passiv kechadi. Jurnalist surishtiruvi esa jurnalistning tashabbusi bilan to'plangan yoki ishlab chiqilgan materiallariga bog'liq. Shu bois ushbu usul aksariyat hollarda "tashabbuskor jurnalistika" (enterprise journalism) deb ham ataladi. Yangiliklarni yoritishdan maqsad dunyoning xolis manzarasini yaratishdir. Jurnalist surishtiruvida esa haqqoniy materiallardan, ya'ni haqqoniyligiga har qanday idrokli kuzatuvchi ishonadigan faktlardan foydalaniladi. Bu – dunyoni isloh qilish uchun haqiqatni yuzaga chiqarish mas'uliyatini bildiradi. "Nyusdey" gazetasining sobiq boshqaruvchi muharrir o'rinbosari Robert Grinning: "Bu, odatda, o'z faoliyati va tashabbusiga, alohida shaxslar yoki tashkilotlar sir bo'lib qolishini istagan muhim mavzuga asoslangan jurnalist materialidir. Uning uchta asosiy unsuri mavjud: jurnalist boshqa birov olib bormagan surishtiruv ishini olib boradi; material mavzusi o'quvchi yoki teletomoshabin uchun juda muhim; boshqalar surishtiruvda tilga olingan faktlarni jamoatchilikdan yashirishga urinadi" degan fikr jurnalist surishtiruvi tushunchasiga berilgan eng ommabop tavsif ekanligi ta'kidlanadi 38 Londonda chiqadigan "Observer" gazetasining yetakchi xodimi Devid Rendall esa jurnalist surishtiruvi quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi, deb hisoblaydi: bu ko'pincha "xom" material bilan ishlaydigan reportyorlar tomonidan olib boriladigan tadqiqotlardir. U ko'plab intervyu olishi yoki faktlar va raqamlarni to'plab, solishtirishi mumkin. Balki ish hajmi bir emas, bir nechta reportyorning sa'y-harakatini talab qilardi. Jurnalist surishtiruvi kundalik ish tugaydigan joyda boshlanadi. U amaldorlarning sir boy bermasligi va ma'lumot taqdim qilishni rad etishlariga e'tibor qilmaydi. Jurnalist surishtiruvining maqsadi – zarur ma'lumotni albatta olishdir. U har qanday mavzuda va ijtimoiy hayotning har qanday sohasida bo'lishi mumkin. Uning uchun, ayniqsa, ikki keng soha unumli hisoblanadi. Birinchisi – turli yo'llar bilan jamoatchilik nazaridan yashirilgan tashkilotlar va faoliyat turlari. Ikkinchisi – to'satdan jamoatchilikning diqqat-e'tiboriga tushib qolgan, bir zumda turli mish-mishlar, mojaroli voqealar va hatto, afsonalar to'qib chiqariladigan odamlar..."

Jurnalistik surishtiruvga oid tadqiqotlardan birida esa "Fuqarolik jamiyatining muhim tarkibiy elementlaridan biri bo'lgan huquqiy madaniyati yuksak va chiqarilayotgan qonunlarga nisbatan hurmat ruhida qaraydigan insonni tarbiyalash jamiyat va davlat uchun manfaatli ekanligi, chunki jurnalistlarning huquqiy savodxonligi, huquqiy madaniyati ortib borgani sayin nafaqat, o'zining huquq va manfaatlarini anglab yetishi kuzatiladi, balki jamiyatimizni, ijtimoiy hayotimizni demokratlashtirish masalasini yanada ijobiy ravishda qaror topishini ta'minlashga urinishi mumkinligi ifodalangan. Qolaversa, jurnalistning yuksak huquqiy madaniyati demokratik jamiyat poydevori hamda huquqiy tizim yetukligining ifodasi ekanligi hamda huquqiy demokratik davlat barpo etishning muhim sharti fuqarolik jamiyatida kishilarning yetuk ma'naviyati, ularning huquqiy burch va mas'uliyatlni anglab yetishlari tushunilishi tilga olingan. Huquqiy madaniyat huquqiy bilim hamda moddiy, ma'naviy, axloqiy va boshqa mafkuraviy omillar asosida shakllanib va rivojlanib borishini e'tiborga olgan holda u fuqarolarning yetukligi va ongliligini ko'rsatuvchi me'yor ekanligi, huquqiy bilimlarga ega bo'lgan va ularni amaliyotda tadbiq eta oladigan jurnalist huquqiy bilimli va madaniyatli hisoblanishi ham bildirilgan.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 19-moddasida: "Har bir inson e'tiqod erkinligi va uni erkin ifoda qilish huquqiga ega; bu huquq hech bir to'siqsiz o'z e'tiqodiga amal qilish erkinligini hamda axborot va g'oyalarni har qanday vosita bilan, davlat chegaralaridan qat'i nazar, izlash, olish va tarqatish erkinligini o'z ichiga oladi" , — deyiladi. Mazkur masala

Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktda yanada aniqroq bayon etilgan. Chunki, axborotlarni bunday tartibda izlash, olish, tarqatish boshqa shaxslarning huquq va erkinliklariga, davlat xavfsizligi, jamoat tartibi, aholi salomatligi kabi qonuniy muhofazadagi subyektlarga daxl qilmasligi lozim. Shu nuqtai nazardan mazkur holat Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 19-moddasida quyidagicha o‘z aksini topgan: “Har bir inson o‘z fikrini erkin bayon etish huquqiga ega, bu huquq… turli axborot va g‘oyalarni izlash, olish va tarqatish erkinligini qamrab oladi” . Ushbu moddaning 2-bandida nazarda tutilgan huquqlardan foydalanish o‘z o‘rnida jurnalist zimmasiga alohida majburiyat va mas’uliyat yuklaydi. Bu holat tabiiyki, ayrim cheklashlar bilan bog‘liq, ya’ni,

a) shaxslarning sha’ni, qadr-qimmatini hurmat qilish;

b) davlat xavfsizligini, jamoat tartibini, aholi salomatligi yoki ma’naviyatiga daxl qilmaslik va h.k.

Bevosita mavzuga qaytgan holda, surishiruv olib borishda amal qilish kerak bo‘lgan qoidalarni shu o’rinda eslatish ayni muddao:

News value: ko‘pchilik televideniye va radio stansiyalar jamiyatda ro‘y berayotgan noma’qulchiliklar, qonun buzilish holatlari bo‘yicha aholidan ko‘plab murojaatlar olishadi odatda. Biroq, ba’zi hollarda murojaatlarninh hammasi ham e’tibor tlab qiladigan bo‘lmaydi, bir kishining shaxsiy hayoti, kichik ahmoqgarchiligi natijasida ranjishi, yolg‘on yoki feyk tahdidlar kabi. Bunday vaqtda jurnalistlar shu kabi xabarlarni tekshirish, haqiqatdan surishtirishga arziydi yoki quruq vaqt ketqazgani qoladimi-yo‘qmi bilish uchun ham vaqt sarflagani ma’qul. Surishtiruv qilish uchun siz duch kelgan mavzu quyidagi savollarga va xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak:

Yangimi

Noodatiymi

Qiziqarlimi

Dolzarbmi

Omma haqidami. Negaki ba’zan biz tanlamoqchi bo‘lgan mavzu faqatgina bitta shaxsga tegishli bo‘lib qoladi va jamiyatdagi muammolarning zarra qismini bo‘lsa-da hal etishga hissa qo‘shmaydigan bo‘ladi. Shu sabab journalist surishtiruv olib borishga umda qisqa vheklangan vaqt borligini va u har bir murojaatni o‘rganib chiqolmasligiga ahamiyat berishi lozim. Ana shunday vaqtda yangiliklarni saralash va qaysi bir arzirli yoki arzimasligi ustida hukm chiqara olish qobiliyati yordamga kelishi kerak.

Keep your eyes and ears open: Jurnalist jamiyatni doimiy kuzatib borishi lozim bo‘ladi. Siz yozmoqchi bo‘lgan mavzuga oid fikrlar ehtimol ahamiyatsiz bir ishni bajarayotganizda misol uchun tish yuvayotganingizda miyangizda lampochka yonishiga xizmat qiladi. Yaxshi surishtiruv olib boradigan jurnalistalr har qanday mayda detalni ham ko‘zdan qochirmaslikka amal qiladi. Aksincha ularni yozib oladi. Chunki keyinroq foydali bo‘lishi mumkin. Avtobusda yoki ko‘chada bo‘lishidan qat’iy nazar, odatiy mish-mishlar, omma izohlari va muloqotlarini tinglab yuradi. Ahamiyatsiz so‘zlar masalaga eng birinhi kalit bo‘lishi mumkin. Biroq hech qachon materialni omma og‘zidan eshitgan mish-mishlarga asoslanib tayyorlamaslik lozim.

Get the facts: Surishtiruv jurnalistikasining asli, yashirilgan faktlarni yerning tub-tubidan qazib chiqarib ommaga oshkor etish. Surishtiruv sudda yoki jamoat yig‘ilishida biror voqelikni xabar

qilishdek oson emasligi haqiqat. Odamlar boshqalardan o‘zlari haqidagi yangiliklarni yahsirishga harakat qilishadi. Iloji boricha ma’lumotlarni olishga jon-jahdiz bilan kirishing. To‘plangan faktlar nihoytada aniq bo‘lishi jurnalist ularni qanchalik puxtalik bilan tekshirgani natijasi bo‘ladi.

Haqiqiy jurnalistika biz tez-tez ko‘radigan filmlarimizdagi syujetdan farq qiladi. Ko‘pchilik jurnalistlarga surishtiruv ko‘pdan-ko‘p kichik detallarni to‘plash uchun millionlab soatlarni sarflash bilan olib boriladi. Agarda sizga yetarlicha vaqt berilmasa, muvaffaqiyatsiz surishtiruvga tayyor turing.

Fit the facts together: Faktlarni to‘plash jarayonida bo‘lsangiz, har bir qo‘lga tushgan faktni bir-biriga solishirib tekshirib chiqishdan erinmaslik kerak. Surishtiruv olib borish xuddi mozayikaga o‘xshaydi. Avvalida tushunarsiz bo‘laklar oldida turgan bo‘linadi. Keyinroq sekin-astalik bilan qismlarning qolganini to‘play boshlaysiz. Va barchasini qidirib topib birlashtirgach asosiy ishga kirishasiz.

Check the facts: yodingizda bo‘lsin siz boshqalar yashirishni xohlagan ma’lumotlarni oshkor qilishga urinyapsiz. Bunda ular sizga qo‘shqo‘llab faktlarni topshirib qo‘ymaydi. Bu aniq. Ehtimolki, sizga qarshi turib, siz yozayotgan yoki efirga berayotgan barchasidan xató izlashga kirishadi. Siz xató qiladigan bo‘lsangiz, darrov sizni javobgarlikka tortishga urinadi. Shu sabab doim e’lon qilmoqchi bo‘lgan faktingizni tekshirib so‘ngra ovoza qiling. Keling bir misol olamiz. “Uotergeyt ishi” deb nomlangan ushbu surishtiruv “Washington Post” muxbirlari Bob Vudvard hamda Karl Bernsteyn AQSh sobiq prezidenti Richard Niksonni hokimiyatdan ketishiga yetaklagan jinoyat ustida o‘tkazilgan. Ular bilishgandi dushmanlari ularning xato qilishini kutayotgandi. Shu zaylda ikkovlon kelishib olishadi: kamida ikkita manbadan ma’lumotlar tasdiqlanmaguncha biror-bir faktdan foydalanmaslikka qaror qilishdi. Va bu surishtiruv olib borishning yaxshigina qoidasiga aylandi. Yodingizda bo‘lsin jinoyatchilar, aldaydi. Shu sabab ular aytgan har bir gapa doim shubha bilan qarash zarur. Har bir kishining aytgan ma’lumotini tekshirib ko‘ring. Garchi ishngan kishingiz bo‘lsa ham.

Evidence: faktlarni to‘plash bilan birga, bu faktlarni qo‘llab-qo‘vvatlovchi dalil va asoslarni ham yig‘ish esdan chiqmasin. Bu sizga ehtimoliy qilingan tahdidlar sabab sudda o‘zingizni oqlash va aybsizligingizni isbotlash uchun o‘ta zarur. Chunki sudda isbotlanadigan faktlar hamda ma’lumotlar qabul qilinadi odatda. Original dokumentlar Dalila sdatida so‘zsiz qabul qilinadi. Ammo fotokopiyalar emas.

Confidential sources: Korrupsiya yoki boshqa bir qonunbuzarlik yuzasidan surishtiruv olib borilayotganda, sizga ma’lumot berib, o‘z shaxsini oshkor etilmasligini so‘rashadi va shu shart bilan sizga ma’lumotlarni taqdim etadi. Siz bu shartga rozi bo‘lishingiz mumkin, ammo yodda tuting, qachondir kelajakda sudd shu ishni ko‘rayotgan sudya sizga ushbu manba shaxsinioshkor etishni buyuradi. Ana shunday holatda siz manbaning shaxsini nomlanishni rad etsangiz qonunni buzayotgan bo‘lasiz. Bo‘ysunmaslik uchun esa javobgarlikka tortilishingiz aniq. Siz manbani himoya qilishga va’da berganingizda manba egasi toki sizni o‘sha va’dangizdan soqit qilmagunicha oshkor etmay turishingiz shart bo‘ladi. Shu sabab manbani himoya qilgan holatda qamoqqa tushishni xohlamasangiz, eng birinchi va’da bermang.

Threats: Surishtiruv jarayonida ba’zilar sizni ishingizdan to‘xtatish holatlari bo‘ladi. Bu tan jarohati yetkazilishi bilan ham tugashi mumkin yoki biror tahkilotning siz ishlayotgan gazeta yoki stansiya bilan reclama hamkorligini tugatishi mumkin. Ba’zida tahdid noma’lum tomondan yoki shaxsdan sizni nimadir qilish bo‘yicha ham bo‘ladi. Ko‘p tahdidlar amalda bajarilmaydi

hech qachon. Agar siz qilinayotgan tahdid guvohi bo‘lsangiz va dalillar bilan uni saqlab tursangiz, bu xususda huquqiy maslahat olgach uni ishingizda ko‘rsatib o‘tsangiz ham bo‘ladi. Surishtiruv jurnalistikasi doim nohush nizolarga boshlaydi jurnalistni. Bu tabiiy. Agarda siz bu nizolarda chiqib ketishni uddalay olmasangiz, surishtiruv jurnalistikasidan uzoqroq yurganingiz ma’qul.

Work within the law (Qonun bo‘yicha ish ko‘rish): Qonunda jurnalistlarga hech qanday maxsus huquqlar yo‘q. Hatto ular korrupsiyani surishtirayotgan bo‘lsa-da. IPolitsiyachilar kabi jurnalistlar boshqa odamlarning telefon qo‘ng‘iroqlarini eshitolmaydilar yoki xat-xabarlarini ochib o‘qiy olmaydilar. Jurnalistlar shaxsning xohishiga qarshi uning yashash manzili yoki ish joyiga kira olmaydilar. Jurnalistlar qonun bo‘yicha ish ko‘rishlari shart. Biroq bu degani etika qoidalariga rioya etmasdan malumotni qo‘ga kiritishga urinmaslik kerak degani. Misol uchun o‘zini politsiya ofitseri yoki bohqa shunga o‘xshagan davlat vakolatidagi shaxs sifatida ko‘rsatasligi lozim. Qonun doirasida qandaydir shubhalarni sezsangiz buni avvalo muharriringiz yoki tashkilotingiz huquqshunosi bilan maslahatlashing.

“Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonunga kiritilgan o‘zgartirishga ko‘ra, aynan uning 9-moddasida “Jurnalistik tekshiruv” faoliyatiga bag‘ishlanib muayyan tushinchalalar beradi: Tahririyat xodimi murojaatlardan yoki boshqa manbalardan o‘ziga ma’lum bo‘lgan yoxud o‘zi guvoh bo‘lgan muayyan voqea, holat yuzasidan jurnalistik tekshiruv o‘tkazishga, faktlarni, guvohlik ko‘rsatmalarini to‘plashda audio va video texnikadan foydalanishga haqli. Jurnalistik tekshiruv tergov va sud jarayoniga ta’sir o‘tkazmasligi kerak. Tahririyat xodimi muayyan voqea yoki holatga nisbatan shaxsiy fikrini ommaviy axborot vositalarida e’lon qilishga, agar voqea yoki holat yuzasidan tergov tugamagan bo‘lsa, sudning hal qiluv qarori yoki hukmi qonuniy kuchga kirganidan so‘ng jurnalistik taxminlarini shaxsiy mulohaza tarzida e’lon qilishga haqlidir, deyilgan.
Ushbu qonunning 10-moddasida esa “Axborot manbaini oshkor etmaslik” talabini bajarish shartlari ifodalangan. “Ommaviy axborot vositasi xabar, ma’lumot, fakt yoki dalillar taqdim etgan manbaning yoki taxallusini qo‘ygan muallifning nomini ularning yozma roziligisiz oshkor etishga haqli emas. Ommaviy axborot vositasi axborot manbaining yoki taxallusini qo‘ygan muallifning iltimosiga binoan sudda uning nomidan ishtirok etishi mumkin”ligi qayd qilingan. Endi biroz surishtiruv jurnalistikasining o‘ziga xosligiga e’tibor qaratsak. Bunda:

Surishtiruv yoki tadqiqot jurnalistikasi: Televideniyening mohiyati shundaki, tomoshabinlar hodisani yoki hikoyani tomosha qiladilar; isbot-dalil ko‘rinib turipti, ovozlar yozib olingan. Ammo jurnalistik tergovlarning aksari yozib olinmagan guvohliklar, anonim manbalar yoki fosh etishga qaror qilgan insonlar, sizib chiqqan hujjatlar, nima bilandir kelishmaslik oqibati yoxud yarim haqiqat hisoblangan masalalardan tarkib topadi. Bu kabi dalilarni inkor qilib bo‘lmas telejurnalistika asariga aylantirish hech qachon oson bo‘lmaydi.

O‘rganish: Surishtiruv jurnalistikasining birinchi qadami masalani juda chuqur o‘rganish maqsadidagi tayyorgarlik ishlaridan boshlanadi. Siz imkon qadar ko‘p inson bilan gaplashishingiz, imkon qadar ko‘p tafsilotini o‘rganishingiz lozim. Bu og‘ir ish, bu ko‘p vaqtni oladigan, juda ko‘p resurs sarflashni talab qiladigan ish – lekin bu mavzu tagiga yetish, mavzuni ochishning yolg‘iz-yagona yo‘li, xolos. Bu turli nuqtai-nazarlarni qo‘lga kiritishning yagona yo‘li.

Konfedensiallik: Ajablanarli joyi yo‘q, ko‘pincha mavzuning markazida bo‘lgan insonlar ochiq gapirishga ikkilanadilar. Xo‘sh, bunday asabiylashgan manbalarning ovozini yozib olmasdan gapirishga qanday ko‘ndirish mumkin? Bunday suhbatlarning boshidanoq siz maxfiy

suhbatlashayotganingizni anglatib qo‘yishingiz va bu suhbat manbasi yashirin qolishiga kafolat berishingiz juda muhim.

Xo‘sh, “ovozni yozib olmasdan” yoxud “matbuot uchun mo‘ljallanmagan” suhbatlashish degani nima? Bu degani siz o‘z materialingizda ularni tilga olmaysiz. Bu, ayni holatda, siz suhbatlashgan insonning shaxsini boshqalarga oshkor etmaysiz, deganidir. Va bir-ikkita muhim maslahat: hamma yozuvlaringizni ehtiyot qilib asrang, imkoni bo‘lsa, nusxalarini ko‘paytirib qo‘ying, o‘zingiz uchun muhim kontaktlarning elektron pochtasi, uy va mobil telefonlari raqamlarini doim saqlab yuring.
Taqdim qila olish: Ayrim muharrirlar surishtiruvni boshlang, degan qarorni qabul qilishda ikkilanadilar. Chunki surishtiruv jurnalistikasi vaqt oladi va pul ketadi. Ustiga ustak shuncha mehnat yakunida bir natija bo‘ladi, degan kafolat yo‘q. Va istiqbolda kimdir tuhmat yoki bo‘hton bandi bo‘yicha tahririyatni sudga berishi mumkinligi ehtimoli ehtiyotkor muharrirlarni uncha bahstalab bo‘lmagan mavzularni tanlashga undaydi.
“Qazishda”, “titkilashda” davom etavering. Imkon boricha ko‘p tafsilot va ko‘p isbot-dalil to‘plang! So‘rashgan paytida “Bir balosi bo‘lmasa, shudgorda quyruq na qilur” yoki “mana shu joyda bir gap bor” deyish yetarli emas. Siz bir papkada o‘zingizning “o‘z tergovingiz” asosidagi ishni barpo etishingiz zarur.
Bu qiyin, mukofoti kam va natijasi darhol ko‘zga tashlanmaydigan ish. Siz tayyorlagan lavha ham darrov efir yuzini ko‘rmasligi aniqroq. Biroq efirga berilganidan keyin “mukofoti ham haddan ziyod ulkan” bo‘ladi. Jurnalistik surishtiruvning maqsadi nima, haqiqatga erishishmi? Uning yo‘lidagi izlanishda jurnalist harakatlarining qonun bilan belgilangan chegarasi qayerda? Bu masalada haligacha qonuniy me’yorlar yo‘q. O‘zbekistonda shu mavzuga bag‘ishlangan olim va mutaxassislarning ilmiy tadqiqotlarini hanuz kutamiz. Amaliyotchilar tajribasi haqidagi qo‘llanmalar deyarli chop etilmagan. Nega shunday?

Jurnalistik surishtiruv muallifdan g‘oyat chuqur va har tomonlama bilim talab qiladi. Bu janrda ijod qilishda sof qalbning o‘zi kifoya qilmaydi. Ularga huquqiy kafolat, axborot ta’minotida ko‘mak, muharrir qo‘llovi ham kerak. Senzura bekor qilinganining o‘zi jurnalist uchun huquqiy kafolat bo‘la olmaydi. Haqiqiy “to‘rtinchi hokimiyat” bo‘lish, davlat boshqaruv institutlari faoliyati, barcha darajadagi amaldorlarning korrupsion harakatiga qarshi samarali kurashish uchun jurnalistga qonunda kafolatlangan huquqlar kengaytirilishi lozim. Ikkinchidan, biron-bir tahririyatda muallifni axborot ta’minoti bilan qo‘llovchi xizmat lavozimi yo‘q. Surishtiruv olib borayotgan jurnalist “yakka ovchi”ga o‘xshaydi. Informatsion texnologiyalarning rivojlanishi, jamiyatdagi ochilish va OAV moddiy imkoniyatini uyg‘unlashtirib jurnalistik surishtiruv olib borayotgan xodimni qo‘llabquvvatlash vaqti keldi.

Uchinchidan, bosh muharrirdagi ichki senzuraga chek qo‘yish lozim. Buning uchun avvalo OAVning iqtisodiy erkinligiga erishish talab qilinadi. To‘g‘ri, jurnalistikaning vazifasi hukm chiqarish emas. Jurnalistika ijtimoiy adolat qaror topishi uchun xizmat qiladi. Uning me’zonlarini esa jamiyat belgilaydi.

Jurnalist huquq posbonlari vakolatini o‘z zimmasiga olmasin. Uning vazifasi jinoyatchini tutish emas, balki jinoiy hatti-harakatga oshkoralik berish, muammoni tahlil qilish, yechimi haqida takliflar kiritishdir. Matbuotimizda esa surishtiruv deya shaxsning daxlsizligiga tajovuz hollari ham uchramoqda. Andijon shahri, Farg‘ona viloyati hokimlarining ishchi yig‘ilishidagi so‘kinishlari, telefondagi audioyozuvi jurnalistlar tomonidan internet saytlari va ijtimoiy tarmoqlarda ommalashtirildi, muhokama qilindi, obro‘sizlantirildi. Bu ham kamlik qilgandek, omma oldida uzr so‘rash, lavozimini tark etish kabi majburiy talablar qo‘yildi. Jamiyatning

ma’lum qatlami esa bu chaqiriq va talablarni qo‘llovchi postlar qoldira boshladi. Albatta, rahbarlarning ma’naviy qiyofasiga jamiyat befarq qarolmaydi. Lekin matbuot shaxsning sha’ni bilan bog‘liq yashirin suratga yozib olingan ovozni oshkor qilishga, ommalashtirishga haqlimi? “Aybdor” deb tariflanayotgan shaxsga shart qo‘yishga haqqi bormi? Masalaning huquqiy tomonlari qonunchilikda qanday me’yorlangan? “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunning 13-moddasiga binoan: “Jismoniy shaxslarning roziligisiz telefondagi so‘zlashuvlarini qayta ishlash, tarqatish va undan foydalanishga yo‘l qo‘ymaydi”, deyilgan. Afsuski, amaldagi qonunlarda yig‘ilishdan yozib olingan so‘zlashuv masalasida hech gap yo‘q. Demak, ta’qiqlanmagan bo‘lsa ruxsat etilgani shu, deb tushunmoq kerakmi? Shunday bo‘lsa, ertaga uyingizga yashirin kamera yoki mikrofon o‘rnatib undagi tasvir va ovozni ham tarqatish mumkin bo‘lib qolmaydimi? Nazarimizda tanqidiy-tahliliy maqola yoki jurnalistik surishtiruvda ochiqlanayotgan dalillar mavjudligining o‘zigina yetarli emasdek tuyuladi. Bunday ochiqlik, fosh qiluvchi axborotni sog‘lom fikr, qonun me’yorlariga rioya qilgan holda qabul qiluvchi omma, unga hozirjavob munosabat bildiruvchi davlat idoralari ham tayyor bo‘lishi lozimga o‘xshaydi.

Tadqiqotchi journalist Gulafshon Soqiyevaning ham bu haqdagi mulohazalari ahamiyatli. “Jurnalistik tekshiruv - bu jamiyat muammolari, korruptsiya, qonun buzilishi, xizmat vakolatlarini suiste’mol qilish yoki ilgari biron sababga ko’ra jamoatchilik tomonidan sir saqlanib qolgan ma’lumotni ochib beradigan material.Jurnalist ma’lum rejaga amal qilgan holdagina muvaffaqiyatli jurnalistik tekshiruv o’tkazishi mumkin. Ya’ni, jurnalistik surushtiruvni boshlashdan oldin, uni amalga oshirish bo’yicha aniq rejamiz bo’lishi kerak.Jurnalistik surushtiruv o’tkazish uchun mavzu tanlash juda muhim qadamdir. Jurnalist qonun qayerda buzilganligini va qayerda mansab vakolatlarini suiiste’mol qilganligini bilishi kerak.Shuni unutmangki, bizning surushtiruv mavzuimiz jamiyat uchun ahamiyatiga ega bo’lishi kerak. Agar siz hech kimga qiziq bo’lmagan mavzuni o’rganmoqchi bo’lsangiz, vaqtingizni behuda ushbu mavzuga sarflamang. Bunday mavzularga kirishmaslik afzal.Jurnalist istalgan sohada jurnalistik tekshiruvlar o’tkazishi mumkin, ammo u surushtiruv maqsadi jinoyat, poraxo’rlik va qonun buzilishining aniqlash bo’lishi kerakligini yodda tutishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Watergate_ishi

2. ( Уиллмен Дж. Журналистские расследования: современные методы и техника. Пер. с англ. – М.:Виоланта, 1998. – С.12.)

3.http://www.uzbekembassy.in/jurnalistik-surishtiruvning-meyoriy-chegaralari-qayerda/?lang=uz

4. Nurova Elmira “Jurnalistik surishtiruv mahorati masalalari” magistrlik dissertatsiyasi.

5. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi

6. https://school.cabar.asia/uz/video/gulafshon-sokieva-jurnalistik-surushtiruv-nima-va-uni-qanday-amalga-oshirish-kerak/

7. Jurnalistik surushtiruvlar uchun qo’llanmalar (Mark Li Hunter muallifligida nashr etilgan, IWPR tomonidan 2015 yilda qayta bosilgan)